SIRDARYO VILOYATI SHIRIN SHAHAR HOKIMI
Q A R O R I

2023 - yil 18 - fevral 32-9-131-Q/23 Shirin shahar hokimligi

Shirin shahar hududida umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llari, ichki xo‘jalik yo‘llari va markaziy ko‘chalarda fuqarolar va transport vositalari harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l-transport hodisalarining oldini olish maqsadida vaqtinchalik sun’iy yo‘l notekisliklarini o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-190-sonli, 2013-yil 10-apreldagi “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqidagi O‘RQ-348-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarorlarida va 2022-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini rivojlantirish strategiyasiga muvofiq, Yangi O‘zbekiston sharoitida avtomobil yo‘llarida inson hayoti va sog‘lig‘ini har qanday hodisalardan kafolatli himoya qilish maqsadida, mamlakatimizda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashning dolzarb yo‘nalishlari - avtomobil yo‘llari infratuzilmasini takomillashtirish va ularning sifatini yaxshilash, yo‘l harakati ishtirokchilarining “piyoda-jamoat transport-velotransport-avtotransport” ustuvorligi asosida xavfsiz harakatlanishi uchun ishonchli shart-sharoitlar yaratish, yo‘l-transport hodisalarining oldini olish va harakat xavfsizligini ta’minlash borasida sun’iy notekisliklarni tashkil etish maqsadida Shirin shahar Ichki ishlar bo‘limi yo‘l harakati xavfsizligi guruhining 2023-yil 22-yanvardagi 22-sonli xati hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Shirin shahar Ichki ishlar bo‘limi yo‘l harakati xavfsizligi guruhining 2023- yil 22-yanvardagi 22-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin va

ma’qullansin.

2. Shirin shahar 4K-660 “Boyovut-Shirin” avtomobil yo‘lidagi "ACWA POWER" kompaniyasi atrofiga vaqtinchalik 1.31 sun’iy yo‘l notekisligi yo‘l belgisini o‘rnatilishiga ruxsat berilsin.

3. Shirin shahar Ichki ishlar boshqarmasi yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi (A.Safarov), shahar Obodonlashtirish boshqarmasi (O.Yo‘ldoshev), mahalla fuqarolar yig‘ini raislari bilan birgalikda sun’iy yo‘l notekisliklarini yo‘l harakati xavfsizligi qoidalariga mos ravishda tashkil etish bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni ko‘rsin.

4. Shahar hokimligi axborot xizmati rahbari (K.Azimjonov), “Shirin sadosi” gazetasi muharriri (O.Ashirqulov)lar ushbu qarorni nashr etilishi va hokimlik rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

5. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari Z.Abduvohidov va ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i A.Xolmatov zimmalariga yuklatilsin.

Shahar hokimi **S.Sultonov**